

PRACTICE OF USING DEDUCTIVE APPROACH IN TEACHING AND ASSESSING RECEPTIVE SPEECH SKILLS IN ARABIC

Shaxribonu M. Raximova

Uzbek State University of World Languages

Tashkent, Uzbekistan

shaxribonuraximova8@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20205058>

Abstract: The purpose of this article is to explore specific aspects of teaching and assessing Arabic language learners' receptive language skills using a deductive approach. By teaching and assessing Arabic receptive language skills, learners can gain a deeper understanding of the language and build a solid foundation for other skills. This approach has been shown to have a positive impact on their future professional and academic success.

Key words: arabic language, receptive speaking skills, assessment, teaching, approach, deductive approach, grammar, text, rules, reading and listening comprehension.

ARAB TILIDAGI RETSEPTIV NUTQ MALAKALARINI O'QITISHDA VA BAHOLASHDA DEDUKTIV YONDASHUDAN FOYDALANISH AMALIYOTI

Shaxribonu M. Raximova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

shaxribonuraximova8@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilida tahsil oluvchi talabalning retseptiv nutq malakalarini deduktiv yondashuv asosida o'qitish va baholashni o'ziga xos jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Arab tilida retseptiv ko'nikmalarni o'rganish va baholash orqali talabalar tilni chuqurroq anglashlari va boshqa ko'nikmalarga asos bo'ladigan kuchli tayanchni hosil qilishiga misollar bilan keltirilgan. Bu yondashuv ularning kelajakdagi kasbiy va akademik muvaffaqiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi dalillangan.

Kalit so'zlar: arab tili, retseptiv nutq malakalari, baholash, o'qitish, yondashuv, deduktiv, grammatika, matn, qoida, o'qish va tinglab tushunish.

ПРАКТИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДЕДУКТИВНОГО ПОДХОДА ПРИ ОБУЧЕНИИ И ОЦЕНКЕ НАВЫКОВ РЕЦЕПТИВНОЙ РЕЧИ НА АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ

Шахрибону М. Рахимова

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

shaxribonuraximova8@gmail.com

Аннотация: Целью данной статьи является изучение конкретных аспектов обучения и оценки рецептивных речевых навыков студента, изучающего арабский язык, на основе дедуктивного подхода. Изучая и оценивая навыки восприятия арабского языка, учащиеся могут глубже понять язык и заложить прочную основу для других навыков. Доказано, что этот подход оказывает положительное влияние на их будущие профессиональные и академические успехи.

Ключевые слова: арабский язык, рецептивные разговорные навыки, оценка, обучение, подход, дедуктивный подход, грамматика, текст, правила, чтение и понимание на слух.

Kirish. Mamlakatimizda arab tilini o'qitish jarayonida mavjud baholash tizimlari ba'zan umumiy yondashuvga asoslanib, har bir talabaning individual rivojlanish darajasini hisobga olmasligi mumkin. Deduktiv yondashuv asosida retseptiv ko'nikmalarni baholash tizimini takomillashtirish, arab tili o'rganishni samarali qilish bilan birga, baholashda ham yangicha yondashuvlarni qo'llash imkoniyatini yaratadi. Bu o'z navbatida, xalqaro til ta'limi standartlariga muvofiq baholash tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning kengayishi bilan deduktiv yondashuv asosida arab tilidagi retseptiv ko'nikmalarni o'rgatish va baholashning yangi metod va vositalarini ishlab chiqish ehtiyoji ortib bormoqda. Talabalar tomonidan yangi bilimlarni tushunish va anglashda yanada samarali yondashuvlarni qo'llash uchun texnologik yechimlar arab tili ta'limini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Baholash jarayoni o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, talabalarning ilmiy saviyasini rivojlantirish va oshirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Baholash ta'limning eng samarali omillaridan biridir. Arab tilidagi retseptiv nutq malakalarini baholash matn turi, talabaning o'qish darajasi va baholash maqsadi kabi turli omillarni diqqat bilan ko'rib chiqishni talab qiladigan muhim vazifadir. Arab tilidagi retseptiv nutq malakalarini baholash murakkab jarayon bo'lib, u lug'at bilimi, grammatik ko'nikmalar va ravonlik kabi bir nechta omillarni o'z ichiga oladi. Yondashuvni tanlash baholashning aniq maqsadlariga va baholanayotgan ko'nikmalarga bog'liq bo'ladi. Tadqiqotchi Sh.M. Muradkasimovanning ta'kidlashicha baholay olmoq - narsa, hodisa yoki harakatga baho bermoq, uning ahamiyati, qadr-qimmati haqida fikr bildirmoq qo'llansada assessment talabalarning ko'nikma va malakalarini, ularning rivojlanish darajasini baholashda barcha o'lchov mezonlarini qamrab oluvchi atamadir. (Muradkasimova, 2022, pp. 72-85). Talabalarning retseptiv til ko'nikmalarini deduktiv yondashuv asosida arab tilida baholashga yo'naltirilgan mashqlar tizimi bilan shug'ullangan olimlar orasida bir necha taniqli tadqiqotchilar mavjud. Ular arab tilini o'qitishda qoidaga asoslangan, ya'ni deduktiv yondashuvni tadqiq qilish va qo'llash bilan shug'ullanganlar. Talabalarning retseptiv til ko'nikmalarini deduktiv yondashuv asosida arab tilida baholashga yo'naltirilgan mashqlar tizimini ko'rib chiqqan tadqiqotchilar orasida Mansour Jassem Al-Dafiri, Muhammad Al-Khuli, Abdullah Yusuf Al-Ghamdi va Saeed Al-Mohanna kabi olimlar mavjud (al-Mansur Abdallah, 1985, p. 66). Ular arab tilini o'qitishda deduktiv yondashuv orqali qoidalarni tushunish va tilni o'rgatish tizimlarini rivojlantirish bilan shug'ullanganlar.

Al-Dafiri arab tili o'qitish usullari va ularning samaradorligini o'rganishga yo'naltirilgan. U tilni o'rgatishda qoidalarni oldindan tushuntirib, o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantirish haqida tadqiqot olib borgan. Uning izlanishlari ko'pincha o'quvchilarning grammatik tushunchalarini rivojlantirish va tilni aniq tushunish orqali o'zlashtirishga qaratilgan. Al-Dafiri arab tili o'qitish jarayonida deduktiv yondashuv orqali talabalarni grammatik qoidalar asosida tilni o'rganishga va tushunishga yo'naltirilgan mashqlar tizimini rivojlantirishga e'tibor qaratadi.

Al-Khuli arab tilini o'rgatish bo'yicha ko'plab ilmiy maqolalar va kitoblar yozgan. U o'z tadqiqotlarida arab tilini o'qitish va baholashda qoidalarga asoslangan (deduktiv) usullarni qo'llagan. Uning tadqiqotlari arab tilini o'qitishda nazariy asoslar va qoidalarga e'tibor berishga urg'u beradi.

Al-Khuli deduktiv yondashuvni talabalarni qoidalar asosida o'rgatishda muhim hisoblaydi va uning amaliy tadqiqotlari arab tili o'qitish metodikalarida bu yondashuvning samaradorligini tahlil qiladi.

Al-Ghamdi arab tili o'rgatishda o'quvchilarning til tushunish qobiliyatlarini oshirishda deduktiv yondashuvni qo'llagan. U talabalarining arab tilidagi grammatik qoidalarni tushunish orqali matnlarni tushunishlariga yordam beradigan usullarni o'rgangan.

Al-Ghamdi o'z tadqiqotlarida arab tilini o'rgatishda talabalarga grammatik va sintaktik qoidalarni tushuntirish orqali ularning retseptiv til ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan mashqlar tizimini rivojlantirishni taklif etadi.

Al-Mohanna arab tilini chet tili sifatida o'rgatish usullariga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borgan va baholash tizimlarida qoidaga asoslangan yondashuvlarni rivojlantirgan. Uning izlanishlari deduktiv yondashuv orqali talabalarni matnlarni tushunishga yo'naltirilgan mashqlar bilan tanishtirishga qaratilgan.

Al-Mohanna talabalarining retseptiv til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qoidalarni tushuntiradigan va keyin matnlar ustida ishlashga yo'naltirilgan mashqlarni qo'llashni targ'ib qiladi.

Talabalarining retseptiv til ko'nikmalarini baholashda deduktiv yondashuv haqida olimlarning fikrlari haqida ko'proq ma'lumot olish uchun, avvalo deduktiv yondashuvning nima ekanligini va uning qanday qo'llanilishini tushunish muhimdir.

Bilamizki, talaba ona tilisi bo'lmagan tilni o'rganish mobaynida turli qiyinchiliklarga duch keladi. Arab tilini asosiy yoki ikkinchi chet tili sifatida o'rganish davrida ham, ko'nikmalarni qabul qilishda juda katta xato va qiyinchiliklar yuzaga keladi. Tilni tez va samarali o'rgatishda yondashuvlarning o'rni ahamiyatlidir. Deduktiv yondashuv yoki deduksiya — bu bilish jarayonida fikrda umumiy bilimlardan juz'iy, qisman bilimlarga kelishdir. Deduktiv yondashuv yordamida tadqiqotchi bir sinf, bir jins, bir guruh predmet yoki hodisa to'g'risidagi umumiy bilimlardan ularning har biri haqida alohida bilimlarni hosil qiladi. Insonning bilish tajribasidan shu narsa ma'lumki, agar biron xusu siyat bir sinf yoki bir jinsdagi hamma predmet yoki hodisalarga xos bo'lsa, bu xususiyat shu sinf yoki jinsga oid har bir predmet yoki hodisaga ham xos bo'ladi. (ДМИТРУСЕНКО, 2018, p. 42).

Deduktiv yondashuv, umumiy prinsiplardan yoki nazariyalardan aniq natijalarga yoki xulosalarga erishish uchun mantiqiy xulosalash metodidir. Til o'rganishda deduktiv yondashuv, umumiy grammatik qoidalar, til strukturalari yoki nazariyalar asosida muayyan til qoidalari yoki tushunchalarni aniqroq tushunishga yordam beradi.

Talabalarining retseptiv til ko'nikmalarini deduktiv yondashuv asosida baholashga yo'naltirilgan mashqlar tizimi o'quvchilarning tilni tushunish (o'qish va eshitish) qobiliyatlarini aniqlash va baholashda qoidalar va nazariyalardan aniq xulosalar chiqarish orqali o'rgatiladi. Bu yondashuv talabalarining mavjud grammatik qoidalar va til nazariyalari asosida tilni to'g'ri tushunishlarini ta'minlashga qaratilgan.

Arab tilida talabalarining retseptiv til ko'nikmalarini deduktiv yondashuv asosida baholashga yo'naltirilgan mashqlar tizimini tadqiq qilgan olimlar orasida Said Mohammed Ali, Mohamed H. A. Hassan, Abdallah S. Bassiouney, va Amani K. Ibrahim kabi olimlar mavjud (Abdisalam Issa-Salwe, 1993, pp. 523–534). Ularning tadqiqotlari arab tilini o'qitishda deduktiv yondashuvning o'rganish va baholash jarayoniga ta'sirini ko'rib chiqqan va bu yondashuvni samarali qo'llash usullarini taklif qilgan.

Talabalarining retseptiv til ko'nikmalarini deduktiv yondashuv asosida baholashga yo'naltirilgan mashqlar tizimi, talabalarni grammatik qoidalar va nazariy tushunchalarga asoslanib tilni to'g'ri tushunish va amaliyotda qo'llashga yo'naltiradi. Bu yondashuv talabalarining analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va tilni chuqurroq o'rganishlariga yordam beradi. Baholash tizimida ushbu yondashuvni qo'llash, talabalarining nazariy bilimlarini aniq va izchil baholashga imkon beradi.

Natijalar. Arab tilida retseptiv ko'nikmalarni baholash metodlari o'quvchilarning tilni to'g'ri tushunishlarini ta'minlash va ularning til qobiliyatlarini ob'ektiv baholashga qaratilgan. Matnni o'qish, tinglab tushunish, grammatika va leksikani tushunish kabi ko'nikmalarni o'lchash uchun turli xil baholash tizimlari qo'llaniladi. Integrativ baholash usullari esa talabalarni umumiy til tushunchasini rivojlantirishga va nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashga undaydi. Ushbu metodlar yordamida o'qituvchilar talabalarning til o'rganish jarayonidagi muvaffaqiyatlarini baholash va ularni kelgusi o'quv faoliyatida yo'naltirishlari mumkin.

Arab tiliga o'rgatishda retseptiv ko'nikmalarni egallash darajasini baholash metodlari o'quvchilarning o'qish va eshitish qobiliyatlarini o'lchash va baholashda muhim rol o'ynaydi. Bu baholash usullari talabalar tilni qanchalik yaxshi tushunishini aniqlashga, ularning grammatik va leksik bilimlarini sinashga va umumiy til o'zlashtirish darajasini baholashga yo'naltirilgan.

O'qish malakasini baholash:

Bu metodlar o'quvchilarning arab tilidagi matnlarni tushunish qobiliyatini baholaydi. Matnni o'qish qobiliyatini o'lchashda talabalarning grammatik tuzilmalar, lug'at boyligi va matn konteksti bo'yicha bilimlari sinovdan o'tkaziladi. Ko'zdan kechirish testlari, savol-javob testlari, bo'sh joylarni to'ldirish mashqlari orqali baholanadi.

Tinglab tushunish malakasini baholash:

Tinglab tushunish qobiliyatini baholash talabaning arab tilidagi audio va video materiallarni tushunish darajasini aniqlashga qaratilgan. Bu baholash usullari talabalar eshitganlarini to'g'ri talqin qilishga yordam beradi. Audio savollar, diktant, ovoqli dialoglar yordamida baholanadi.

Grammatika va leksikani baholash:

Ushbu metodlar talabalar grammatik qoidalar va lug'at boyligini qanchalik yaxshi tushunishlarini o'lchashga mo'ljallangan. Bu usul talabalar nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashini baholaydi. Grammatik testlar, leksik testlar, sinovdan o'tkazish mashqlari orqali baholanadi.

Integrativ baholash:

Integrativ usullar talabaning umumiy til ko'nikmalarini, ya'ni o'qish va eshitish qobiliyatlarini birgalikda baholaydi. Bu usul orqali talabalar nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Loyihalar va prezentatsiyalar, o'qish va eshitishni birgalikda bajarish mashqlari, yozma ishlar yordamida baholanadi.

Olimlar arab tilining islom tili sifatidagi ilmiy mohiyatini, uning aniqligini, atamalarning semantik sohasining kengligini alohida ta'kidlaydilar. Islom lug'atida markaziy so'z yoki atama bilan belgilangan konseptual tuzilma yozilgan, boshqa semantik sohaslar bilan kesishgan semantik soha ularning tuzilmalari bilan o'zaro bog'langan bo'lib chiqadi. Arab tilini o'rganish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda ta'lim faoliyatining asosiy shakllari sifatida turli usullar qo'llaniladi: materialni tushuntirish, so'rovnoma, mashqlar, suhbat, munozara va boshqalar (Yabborov, 2020, p.45).

Xulosa. Arab tiliga o'rgatishda retseptiv ko'nikmalarni egallash darajasini baholashda qo'llaniladigan yondashuvlar talabalarni nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltiradi. Bu baholash metodlari talabalarning tilni to'g'ri tushunish qobiliyatlarini rivojlantiradi va ularning til o'zlashtirish jarayonidagi muvaffaqiyatlarini ob'ektiv baholash imkonini beradi. Turli baholash tizimlari yordamida o'qituvchilar talabalarning bilim darajasini aniqlab, ularni keyingi o'quv bosqichlarida yo'naltirishlari mumkin. Bu esa til o'rganish jarayonini yanada samarali va intensiv borishiga xizmat qiladi. Deduktiv yondashuv talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirdi, ularga nazariy bilimlarni amaliy mashqlar orqali mustahkamlash imkoniyatini beradi. Retseptiv ko'nikmalar, ya'ni o'qish va tinglash, tilni bilish darajasini baholashda muhim mezonlar

hisoblandi. Ushbu ko'nikmalar nafaqat talabalarning tilni tushunish qobiliyatini oshiradi, balki ularni mustaqil ishlashga ham undaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Al-Muhtasib al-Mujahid Hamzah - Ali - Hamzah - Sulayman - Hamzah - al-Mansur Abdallah, (1985). Madeleine Schneider, 'Les inscriptions arabes de l'ensemble architectural de Zafar-Dhi Bin (Yémen du Nord)', *Journal asiatique* 273 p. 66 // R.B. Serjeant & R. Lewcock, *San'a'; An Arabian Islamic City*. London 1983, pp. 61-2. // Robert W. S tookey, *Yemen; The Politics of the Yemen Arab Republic*. Boulder 1978, p. 110. (in Arabic)
2. Abdisalam Issa-Salwe, (1993). The Failure of The Daraawiish State, The Clash Between Somali Clanship and State System, paper presented at the 5th International Congress of Somali Studies, December 1993 // [Abdi Sheik Abdi](#), Divine Madness: Mohammed Abdulle Hassan (1856–1920), Zed Books Ltd., London, // Silberman, Leo. "The 'mad' Mullah: Hero Of Somali Nationalism." *History Today* (Aug 1960) 10#8 pp 523–534. (in Arabic)
3. Dmitrusenko Inna Nikolaevna, (2018) "Teaching foreign language receptive vocabulary to students of psychology faculties in the process of independent reading". *Obucheniye inyozičnoe retseptivnoe leksike studentov psixologicheskix fakul'tetov v prossese samostoyatel'nogo chteniye* - Moscow – 242 p. (in Russian)
4. Yabborov G.Ya,(2020). "Methods and techniques of teaching Arabic in higher education institutions". *Oliy o 'quv yurtlarida arab tilini o 'qitish metodikasi va texnikasi.* – Baku - 145 p. (in Uzbek)
5. Muradkasimova K. Sh, (2022). "Competency in assessing foreign languages: current state and needs in practice // Foreign languages in Uzbekistan". *Chet tillarni baholash kompetensiyasi: amaliyotdagi holat va ehtiyojlar*// *O'zbekistonda xorijiy tillar* — №.3 (44). Tashkent— 150 p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.20205058> 10.36078/1658738640. (in Uzbek)